

## PSIXIK RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI MAVJUD O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING SAMARALI USULLARI

*Matyakubova Maloxat Nurullayevna*  
*Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani*  
*6-son AFCHO'SMUO'TM psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada psixik rivojlanishida muammosi mavjud o'quvchilar bilan ishlashning psixologik-pedagogik usullari, ularni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashtirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, oila, maktab va mutaxassislar hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** psixik rivojlanish, o'quvchi, psixologik yordam, inklyuziv ta'lim, moslashuv, korreksion ishlar, pedagogik yondashuv, rivojlanish

### KIRISH

Psixik rivojlanishida muammosi mavjud o'quvchilar bilan ishlash zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bunday o'quvchilar individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, ularga alohida pedagogik va psixologik yondashuv talab etiladi. Psixik rivojlanishdagi qiyinchiliklar diqqatning sustligi, xotira jarayonlarining sekin rivojlanishi, nutqdagi muammolar yoki emotsional-irodaviy holatlardagi o'zgarishlar orqali namoyon bo'lishi mumkin.

Bunday o'quvchilar bilan ishlashda eng muhim omillardan biri — individual yondashuvdir. Har bir bolaning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqib ta'lim metodlarini tanlash samarali natija beradi.

Psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish juda muhimdir. O'quvchini tanqid qilish emas, balki rag'batlantirish va kichik yutuqlarini e'tirof etish uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Inklyuziv ta'lim muhitida tengdoshlar bilan sog'lom muloqot ham katta ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

Korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar psixik rivojlanishdagi muammolarni kamaytirishda samarali hisoblanadi. Diqqat, xotira, nutq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bolaning bilish faoliyatini faollashtiradi.

O'yin texnologiyalari ham samarali usullardan biridir. Didaktik va rolli o'yinlar orqali bolalarda muloqot ko'nikmalari, mustaqil fikrlash va emotsional barqarorlik rivojlanadi. Oila va maktab hamkorligi bu jarayonning asosiy omillaridan biridir. Ota-onaning farzandiga nisbatan to'g'ri munosabati va pedagoglarning qo'llab-quvvatlashi bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktab psixologi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda olib borilgan tizimli ishlar o'quvchilarning psixik rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi.

Psixik rivojlanishida muammosi mavjud o'quvchilar bilan ishlash sabr, individual yondashuv va kompleks psixologik-pedagogik yordamni talab qiladi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim va tarbiya jarayoni ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi.

Olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Berto'n, E.M.Dunayeva va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar:

- 1) konstitutsional;
- 2) somatogen;
- 3) psixogen;
- 4) serebral shakli.

Ruhan sust rivojlanganlikning konstitutsional shaklini xarakterlovchi belgilar quyidagilardan iborat: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlariga nisbatan 1–2 yosh kichik ko'rinadi. U o'zini bog'cha yoshidagi bolalardek tutadi va ta'lim olish uchun hali "yetilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, chunki unda o'qishga qiziqish sust, ish qobiliyati past bo'ladi. Mas'uliyatsizlik, motivatsiyaning sustligi, ruhiy jarayonlardan analiz va sintez qobiliyatlarining yetarli rivojlanmaganligi tufayli o'qish, yozish hamda matematikani katta qiyinchilik bilan o'zlashtiradi. Dars vaqtida tez charchab qolishi, bosh og'rig'i kuzatilishi konstitutsional shakldagi bunday bolalarda ish qobiliyati va faollikning yanada pasayishiga sabab bo'ladi.

Rivojlanishdagi bu kamchilikka bolaning onasi homiladorlik davrida qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi, yurak-qon tomir kasalliklari kabi omillar sabab bo'lishi mumkin.

Ilk yoshda turli surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o'sib-unmay qolishi mumkin. Bu esa o'z navbatida ruhiy jihatdan rivojlanishda orqada qolish va kechikishga olib keladi. Sust rivojlanganlikning somatik shakli deb shunga aytiladi. Bunday bolalarda surunkali infeksiyalar, allergik holatlar, tug'ma nuqsonlar va shu kabi kasalliklar tez-tez uchrab turadi.

Ruhiy rivojlanishning somatogen sabablarga aloqador sustligi bolada asteniya holatini vujudga keltiradi. Ayrim bolalarda somatogen infantilizm kuzatiladi, ya'ni bola o'sib-unmagan, go'dak tabiatli bo'lib qolaveradi. Bunda bola psixikasida nevrozga o'xshash holatlar — o'z kuchiga ishonmaslik, qo'rqoqlik, injiqlik, erkalik, qiziqishning pastligi va boshqalar kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshidan noqulay va noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi hamda tarbiyadagi salbiy omillar uning ruhiy

rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu xildagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchidan, bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qo'yish holati uchraydi. Bunda bolalarda burch va mas'uliyat hissi shakllanmaydi. Aql-idrok rivojlanishi, qiziqishlar, bilish faoliyati, his-tuyg'u va irodaning yetishmasligi bilan birga, o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun zarur bilim va taassurotlarning kamligi ham kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida aql-idrok va bilish faoliyatiga aloqador kamchiliklarga, aksariyat hollarda noto'g'ri tarbiya natijasida paydo bo'lgan salbiy xislatlar ham qo'shiladi. Natijada shaxs rivojlanishi izdan chiqib, unda patologik xususiyatlar yuzaga keladi. Ana shunday bolalarni pedagogik qarovsiz bolalardan ajrata olish lozim. Pedagogik qarovsiz bolalarning psixikasi normal bo'lib, ular noto'g'ri tarbiya natijasida ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga kirib qoladilar. Ruhiy sust rivojlanishning serebral shakli esa miya shikastlari, meningit, meningoensefalit, gidrotsefaliya va boshqa kasalliklar natijasida yuzaga keladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning o'qishi pasayib ketadi. Biroq bu holat o'z vaqtida va to'g'ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o'zlashtira oladilar. Ruhiy rivojlanish kamchiliklarining ayrim shakllarida bolalarni vaqti-vaqti bilan maxsus psixonevrologik sanatoriyalarda davolash foydali hisoblanadi. Sanatoriyada bola jamoa ishlariga asta-sekin jalb etiladi. Unda charchash alomatlari paydo bo'lganda, u o'quv mashg'ulotlaridan vaqtincha ozod etiladi yoki unga yengilroq vazifalar beriladi. Sanatoriyada davolanib qaytgach, bola o'qishni o'z maktabida davom ettiradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun ta'lim umumta'lim bog'cha va maktab dasturlari asosida tashkil etiladi. Biroq bunday bolalar bilan ishlashda ularning psixologik va fiziologik xususiyatlari inobatga olinib, maxsus himoyalovchi hamda davolovchi pedagogik tartib yaratiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning tafakkuri, diqqati, xotirasi, nutqi, idrok etishi va ish qobiliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bunday o'quvchilarga bilim berishda o'qituvchi ularning individual xususiyatlarini hisobga olib, maxsus metod va usullardan foydalanadi. Shu bilan birga, pedagogik yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash va korreksion mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi bolalar va o'smirlar gigiyenasi instituti olimlari, jumladan, hamda boshqa mutaxassislarining ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o'zlashtirish darajasi jihatidan sog'lom bolalar bilan yengil darajadagi aqli zaif bolalar o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi.

Tadqiqotlarda bir xil topshiriqlar sog'lom, ruhiy rivojlanishi sustlashgan va yengil darajadagi aqli zaif bolalarga berilgan. Natijada sog'lom bolalar topshiriqni tez va to'g'ri bajargan bo'lsalar, yengil darajadagi aqli zaif bolalar vazifani tushunishda qiyinchilikka duch kelganlar. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar esa ma'lum darajadagi yordam bilan vazifani bajarishga muvaffaq bo'lganlar.

Psixolog olim tadqiqotlariga ko'ra, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda tafakkurning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — so'z-mantiq tafakkuri bilan ko'rgazmali-obrazli tafakkur o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ularning so'z-mantiq tafakkuri yetarli rivojlanmagan bo'lsa-da, ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali-obrazli tafakkuri ko'pchilik hollarda normal tengdoshlariga yaqin bo'ladi. Shu jihat ularni aqli zaif bolalardan farqlash imkonini beradi.

Mazkur bolalarda bilish faoliyatining rivojlanish imkoniyatlari mavjud bo'lib, to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lim, tarbiya va korreksion ishlar natijasida ular asta-sekin normal rivojlanish darajasiga yaqinlashishlari mumkin.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar predmet va hodisalarni tahlil qilishda sog'lom bolalarga nisbatan kamroq, ammo aqli zaif bolalarga qaraganda ko'proq belgilarni ajrata oladilar. Biroq ularning tahlil qilish jarayoni rejasiz bo'lgani sababli ayrim muhim qismlar e'tibordan chetda qoladi. O'qituvchi tomonidan berilgan yo'naltiruvchi yordam esa ularning faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Bu o'quvchilarda umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash va sistemalashtirish kabi tafakkur jarayonlari ham o'ziga xos tarzda rivojlanadi. Vazifalar murakkablashgan sari ularning tafakkur faoliyati yengil darajadagi aqli zaif bolalar faoliyatiga yaqinlashishi mumkin.

Psixolog olim olib borgan kuzatishlarga ko'ra, boshlang'ich sinf yakuniga kelib ko'plab ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning tafakkur darajasi normal tengdoshlariga yaqinlashadi. Ayniqsa umumlashtirish va tasniflash jarayonlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda bilish jarayonlari sekinroq shakllansa-da, ularda rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Bunday bolalar ko'pincha o'qishga nisbatan qiziqishning sustligi, o'yinga moyillikning yuqoriligi, o'z kuchiga ishonchsizlik kabi holatlar bilan ajralib turadilar. Muntazam muvaffaqiyatsizliklar esa ularda o'qishga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, bu toifadagi bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, maxsus pedagogik metodlardan foydalanish va ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya va korreksion ishlar natijasida ularning bilish faoliyati, tafakkuri hamda ijtimoiy moslashuvi sezilarli darajada rivojlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. “Maxsus pedagogika” M.U. Xamidova Toshkent-2018
2. “Maxsus pedagogika” P.M. Po'latova, L.Sh. Nurmuxamedova, D.B. Yakubjonova, Z.N. Mamarajabova, Sh.M. Amirsaidova, A.D. Sultanova.
3. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari-T. 2012 yil
4. L.R. Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova, Maxsus psixologiya-T. 2013 yil
5. M. Ayupova “Logopediya” 2007 yil
6. Ziyo.net